



DO'LANA (CRATAEGUS PONTICA) O'SIMLIGINING DORIVOR XUSUSIYATLARI.

Turg'unboyeva Xosiyatxon O'ktamjon qizi,
kimyo fanlari falsafa doktori

Ubaydullayev Komiljon Tursunboyevich
Andijon Davlat Tibbiyot Instituti, O'zbekiston
E-mail: xosiyatmirzayeva2@gmail.com

Annotatsiya. *Do'lana (crataegus pontica) ra'nodoshlar oilasiga mansub daraxt yoki buta bo'lib, dorivorlik xususiyatlari jihatidan alohida o'rinni egallaydi. Ushbu maqolada do'lana o'simligining morfologik xususiyatlari, tarqalishi, dorivorligi, xalq tabobati va zamonaviy tibbiyotda qo'llanilishi haqida so'z boradi.*

Kalit so'zlar: *crataegus pontica, morfologik xususiyatlari, geografiyasi, dorivor xususiyatlari, flavanoidlar, alkaloidlar, vitaminlar*

Abstract. *Hawthorn (Crataegus pontica) is a tree or shrub belonging to the family of the Asteraceae, which is a member of the family of the Asteraceae. The article discusses the morphological characteristics of the hawthorn plant, its cultivation, medicinal properties and application in modern medicine.*

Keywords: *crataegus pontica, morphological features, geography, medicinal properties, flavonoids, alkaloids, vitamins.*

Do'lana o'simligi ra'nodoshlar oilasiga mansub bo'yi 5metrga yetadigan daraxt yoki buta bo'lib, O'zbekistonda do'lananing bir nechta turi uchraydi, ayniqsa sariq rangli do'lana (crataegus pontica) keng tarqalgan. Xitoy, Ispaniya, Italiya, Jazoir, Amerika va boshqa mamlakatlarda keng tarqalgan. Barg cheti yirik tishli yoki patsimon bo'lingan, poyaga ketma-ket o'rnashgan. Guli mayda, to'pgulga yig'ilgan. Mevasi 1-5 danakli. Do'lana yovvoyi holda O'zbekistonning tog'li tumanlarida, dengiz sathidan 1000-1500m balandlikda, ko'pincha yakka holda o'sadi, ba'zan kichik do'lanazorlar ham uchraydi. Sariq do'lananing guli nektarga boy. Do'lana mayi iyun oyida gullaydi. Sentabr oxirlarida pishadi. Do'lana mevasi tarkibi 20% qand, 8% yog', 0,67-0,88% olma kislotasi bor. Flavanoidlar, fitosterinlar, xolin, asetilxolin, oshlovchi moddalar, korotin, vitamin C, organik kislotalar mavjud. O'zbekistonda o'sadigan do'lananing ba'zi turlarida vitamin B1, B2, PP, C, E borligi aniqlangan. O'simlik gullarida 0,16%gacha efir moylari uchraydi.

Xalq tabobatida ishlatilishi.

Xalq tabobatida do'lana guli, mevasi, bargi va daraxt po'stlog'i bir qancha kasalliklarni davolashda ishlatiladi. Shulardan tayyorlagan qaynatma va damlamalarni yurak o'ynashida, qon bosimi oshganida, bosh aylanganida, nafas qisishida,

shamollash, uyqusizlik, yurak nevrozida, yangi mevasi ich surishida foydalaniladi. Bundan tashqari, qandli diabetda ham mevalari yo'q qoringa iste'mol qilinganda foyda beradi.

Qadimda do'lanadan kishi toliqqanda, aqliy xorg'inlikda, uyqusizlikda, yurak atrofida og'riq paydo bo'lganida davom sifatida foydalanilgan. Ibn Sinoning yozishicha, mevasi dumaloq, taxir mazalidir. Burishtirish quvvati ryabinanikidan kuchliroq, jigardan o't chiqishini to'sib qo'yadi va bu xususiyati barcha mevalarnikidan kuchliroqdir. Ovchilar, uzoq yo'l yuruvchilar do'lana mevasidan olib yurishadi, sababi-odamni to'q tutib, quvvatni oshiradi va tananing chidamliligini, tetikligini kuchaytiradi. Amirdavlat kitobida do'lananing 2 turi keltiriladi. Birinchisi tikanli do'lana (*Crataegus oxyacantha*) bo'lib, u nokka o'xshaydigan daraxt, ko'p sonli tikanaklari bor. Mevasi mo'rt mevaga o'xshaydi. Mevasi yeyilsa, qorinning eski kasalini va ich ketishini davolaydi hamda bachadondan ajralib chiqadigan fasodlarga barham beradi. Ikkinchisi, bog' do'lanasi- *Mespilus Germania* Lning mevasi uchburchak va qizil rangda. Sherozda uni tikanli do'lana deb ataydilar. Eng yaxshisi pishgan mevasi hisoblanadi.

Do'lananing shifobaxsh xususiyatlaridan hozirgi zamon meditsinasida ham keng foydalanib kelinmoqda. Do'lananing spirtli nastoykasi va ekstraktini vrachlar angionevroz (qon tomirlarining nevrozi, qon tomirlarining funksional kasalligi), yurak faoliyatining buzilishi, qon bosimining ortishi, yuqumli kasalliklarga chalingan bemorlar yuragining quvvatsizlanishi kabi kasalliklar bilan og'rigan bemorlarga ichishni tavsiya qiladilar. Do'lana kardiovalen preparati tarkibi kiradi. Do'lana preparatlari yurak mushaklarining qisqarishni yaxshilaydi, uning bezovtalanishi, qon tarkibidagi xolesterinni kamaytiradi. Keyingi vaqtlarda do'lana preparatlarini ateroskleroz kasalligiga davo bo'lishi haqida ma'lumotlar bor. Do'lana mevalaridan dorilar tayyorlash uchun kuzda mevalari pishganda terib olinadi. Mevasi va bandi yot aralashmalardan tozalanadi va quritiladi. Do'lana guli o'simlik gullagan paytda yig'ib olinib, salqin, havo almashib turadigan joylarda quritiladi.

Do'lana ekstrakti artrit va podagra kasalliklarida foydalidir. U bo'g'imlarni jarohatlardan himoya qilishga va og'riqsiz harakatlanishiga yordam beruvchi oqsil va kollagenni organizmda ushlab turadi. Do'lananing iste'mol qilish ushbu kasalliklarni davolash va oldini olishda asqatadi. Shuningdek, do'lana ekstrakti yurak yetishmovchiligini, aritmiyani yengish, aterosklerozdan xalos bo'lish va xolesterin miqdorini kamaytirish mumkin. Do'lana qon tomirlarini kengaytirib, qon aylanishni ham yaxshilaydi.

Do'lana tarkibidagi fermentlar organizmdagi gormonlarga ham ta'sir etadi. Bu esa o'z navbatida depressiya, surunkali charchoq va asabiylashish asoratlarini yengishga yordam beradi. Do'lana ekstraktini qabul qilish xavotir hissini yo'qotadi. Sgu sababli u ko'p yillar davomida tabiiy tinchlantiruvchi vosita sifatida qo'llanilgan.

Do'lana tarkibidagi organik birikmalar va kletchatkalar ichak mikroflorasi bilan birga aloqaga kirishadi va uning faoliyatini yaxshilaydi. Shuningdek, do'lana ovqat hazm bo'lishiga va yegulikni oshqozonda maydalanishiga yordam beradi. Metabolizmni oshiradi. Ichni yumshatadi. Ichak infeksiyalari bilan kurashadi. Do'lana yordamida tasmasimon parazitdan xalos bo'lish mumkin.

Xulosa. Muxtasar qilib aytganda, do'lana tabiatning insonga oltin tuhfasini deyish mumkin. Do'lananing dorivorlik xususiyatlari turli-tuman bo'lib, ulardan oqilona foydalanish lozim. Do'lananing shifobaxshlik xususiyatlari bilan bir qatorda yon ta'sirlarini bilish, preparatlarini qo'llashda mutaxassis bilan albatta maslahatlashish lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

1. O'zME. Birinchi jild. Toshkent, 2000yil
2. Xolmatov H.X, Ahmedov O'.A. Farmakognoziya. Toshkent 1995
3. Professor Ibrohimjon Asqarov Tabobat qomusi. Toshkent 2019
4. Ataboyeva X.N, Xudayqulov J.B, O 'simlikshunoslik. Toshkent 2018
5. <https://shifo.uz/article/do-lana-haqida>